*8. Boshqarma qonun hujjatlariga muvofik boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.*

.

**Sho`ba mudirining lavozim majburiyatlari**

1. Boshqarma sho`ba mudiri:

Sho`ba faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi-boshkarma zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishiga mas’ul hisoblanadi;

Hududni innovatsion rivojlanishining o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan konsepsiyalar va amaliy chora-tadbirlari dasturlarini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

Taqdim etilgan takliflar va hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqishda davlat prinsiplariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlaydi, ularning sifatli ishlab chiqilishini tashkil qiladi va tayyorlangan hujjatlar loyihalariga viza qo‘yadi. Tegishli hujjatlar qabul qilingandan keyin ularning bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlaydi;

Tasdiqlangan tuzilmaga va shtatlar ro‘yxatiga muvofiq lavozimga tavsiya etilayotgan nomzodlar, mutaxassislarning kasbiy darajasini va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va ularga jazo choralari ko‘rish bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va boshqarmaga kiritadi;

Mutaxassislar o‘rtasida vazifalar taqsimotini, shuningdek boshqarmaga sho`baning yillik, yarim yillik ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun boshqarma boshlig`iga kiritadi, mutaxassislarning ish rejalarini tasdiqlaydi;

Ish yuritishni belgilangan tartibda olib borilishini ta’minlaydi, Boshqarma boshlig`iga chiquvchi xatlar va murojaatlarni imzolash uchun taqdim etadi.

Ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha sho`ba mudiri innovatsiyalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, hududda ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirish strategiyasini belgilash masalalarida mas’ul hisoblanadi va uning asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat:

hudud, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi tendensiyalarni atroflicha tahlil qilish asosida, muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasida hamda tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni inobatga olgan holda innovatsion rivojlanish usul va tadbirlarini amaliy qo‘llashni ta’minlaydi;

shahar va tumanlarda innovatsiya faoliyati bilan bog‘liq ishlarining holati va natijadorligini doimiy ravishda o‘rganadi hamda ular samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

hududdagi korxona va tashkilotlarida innovatsion faoliyat samaradorligini mavjud indikatorlar asosida o‘rganadi va holatini baholaydi hamda sohani innovatsion rivojlantirish bo‘yicha vakolatli tashkilot, korxona va xo‘jalik birlashmalari takliflarini to‘playdi va umumlashtiradi;

shaharlar va tumanlar iqtisodiyotida, eng avvalo, sanoat va qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgartirishlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda usul va uslublar asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi;

innovatsion tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilishda hududiy boshqaruv organlarining mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qiladi;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq barcha dasturlarda innovatsion uslub va texnologiyalarni joriy qilishni nazarda tutadi. Shu asosda hududiy investitsiya dasturlari, ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, texnik yangilash va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari, mahalliylashtirish dasturi, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturlari, yangi ish o‘rinlari tashkil etish va bandlikni ta’minlash dasturlari, shuningdek boshqa hududiy dasturlarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishishlarining monitoringini olib boradi.

Ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis o‘z vazifalari doirasida boshqa funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Innovatsion loyihalar va tijoratlashtirish masalalarini hududda fundamental, ilmiy- amaliy va innovatsion loyihalar va dasturlarni ishlab chikish. Ularni ekspertizadan o‘tkazish va belgilangan tartibda moliyalashtirish hamda ular ijrosini monitoring qilish ishlariga mas’ul hisoblanadi va uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Xududiy ilmiy dasturlarni ishlab chiqishni, tasdiqlashni hamda samarali amalga oshirishni tashkil etadi;

Innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishni tashkil etadi;

Innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning yarmarka-ko‘rgazmalarini tashkil etadi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ‘ib qilish va amaliyotda foydalanish mexanizmlarini shakllantiradi;

ilmiy-texnikaviy loyihalar, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning davlat ekspertizasini tashkil qiladi;

baholash va o‘rganish natijalari asosida ilg‘or texnologiyalarni birinchi darajada joriy etishni talab qiladigan tegishli tarmoq va sohalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi;

innovatsion jarayonni amalga oshirishning eng maqbul variantini tizimlashtiradi, aniq vaziyatlar uchun optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi;

hudud iqtisodiyoti uchun dolzarb hisoblangan ishlanmalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalar natijalari bo‘yicha litsenziya kelishuvi asosida hamda ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga qo‘llash bo‘yicha loyiha tashabbuskorlari va ishlab chiqarish vakillarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qiladi;

moliyalashtirilgan loyihalarning samarali va maqsadli bajarilishi yuzasidan monitoring yuritadi.

Innovatsion loyihalar va tijoratlashtirish masalalari bo‘yicha bosh mutaxassis o‘z vazifalari doirasida boshqa funksiyalarnia malga oshirishi mumkin.

**<u>Sho`ba bosh mutaxassisi</u>**

1. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis:

Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, sanoat zonalari va boshqa innovatsion infratuzilmalar tashkil qilish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshirishni tashkil qiladi;

Viloyatning innovatsion salohiyatini oshirishga ko‘maklashish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va ularning ijrosini ta’minlaydi;

Innovatsiya infratuzilmalari hamda resurs sarfi yuqori bo‘lgan tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

atrof-muhitning ifloslanishi darajasini kamaytiradigan ekologik toza texnologiyalarni qo‘llagan holda ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishni nazarda tutuvchi «yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini joriy etishga ko‘maklashadi.

Bosh mutaxassis, shuningdek:

Sho`bada hujjatlarning sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishi ishlariga hamda qabul qilingan hujjatlar bajarilishining nazorati uchun mas’ul hisoblanadi;

Boshqa boshqaruv organlari, tashkilotlar, korxona va xo‘jalik birlashmalari tomonidan taqdim etilgan takliflar va hujjatlarni boshqarma vazifalari doirasida tahlil qiladi; zaruratga ko‘ra, ular bo‘yicha tahliliy materiallar va ekspert takliflarini tayyorlaydi va sho`ba mudiri bilan kelishgan holda Boshqarma boshlig‘iga kiritadi;

Boshqarmada sho`ba vazifalari doirasida qabul qilingan hujjatlar bajarilishining nazorat rejasini yoki amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun sho`ba mudiri bilan birgalikda Boshqarma boshlig‘iga kiritadi;

Mazkur Nizomga va vazifalarga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Boshqarmada sho`ba tomonidan vazifa va funksiyalarning bajarilishi boshqarma hamda vazirlik tomonidan baholanadi.

Boshqarmada sho`bani saqlash xarajatlari va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**<u>6. Ta`lim sifati nazorati bo`yicha bosh mutaxassisi</u>**

- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining bajarilishini ta’minlaydi;
- Mehnat, ichki tartib qoidalar va ijro intizomiga qat’iy rioya qiladi.
- Boshqarma hamda viloyat hududidagi davlat va nodavlat Oliy ta`lim va tassarufidagi Professional ta`lim muassasalarida Ta`lim sifatinini nazoratini olib boradi va bu borada monitoring ishlarini yo`lga qo`yadi.
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimi qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining amaldagi qonunlar bo’yicha me’yoriy hujjatlari asosida ta’lim muassasalarida sohalari bo’yicha ishlarini olib borishni, tarbiyaviy jarayonni boshqarishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.
- Nazariy va amaliy darslar, o’quv amaliyotlarining sifatli tashkil etilishi, hom ashyodan me’yornoma asosida foydalanish darajasini ta’minlash bo’yicha ta’lim muassasalariga uslubiy yordam ko’rsatadi, ilg’or pedagog va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining ish tajribasini ommalashtiradi.
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan va yukori tashkilotlardan kelgan hujjatlar ijrosini ta’minlaydi. Davlat ta’lim standartlarini joylarda to’liq bajarilishi ustidan nazorat o’rnatadi. Milliy g’oya va uning mohiyatini har bir o’quvchiga etib borishini nazorat qiladi;

- Viloyat hududiy boshqarmasi tasarrufidagi ta’lim muassasalarining Attestatsiya va akkreditizatsiya bilan bog`liq jarayonlarini, pedagog xodimlar va ishlab chiqarish ta`limi ustalarini attestatsiya jarayonlarini o`tkazilishiga bevosita monitoringini yuritib ushbu jarayonni to`liq ijrosini ta`minlaydai.
- Boshqarma tasarrufidagi ta’lim muassasalarda faoliyat yurituvchi pedagog va muhandis pedagoglar orasida attestatsiyadan o’tish muddati kelgan pedagoglarning ro’yhatini shakllantiradi, ro’yhatni mahsus dastur asosida Davlat xizmatlari orqali rasmiylashtirilishligini nazorat qiladi va viloyatda Attesatsiya natijalari bo`yicha monitoringini olib boradi.
- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan bayramlarni, Davlat dasturlari hamda barcha ommaviy tadbirlarning o’tkazilishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;
- Ta`lim sifatini yaxshilash borasida Professional ta’lim muassasalarida ishlayotgan, yangi pedagogik inavatsion texnologiyalar bo’yicha ish olib borayotgan tajribali, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan va yosh istedoli o’qituvchilar ish faoliyatlarini ommalashtirishga amaliy yordam beradi.
- Ta`lim sifatini yaxshilash borasida Horijiy davlatlarda malaka oshirib kelgan o’qituvchilar bilan ular ish tajribalarini ommalashtirish, loyihalar bo’yicha koordinatorlik faoliyatlarini tashkil etib, multiplikatorlar bilan hamkorlikda ishlaydi.
- Professional ta’lim muassasalarida o’quvchilar jurnali, o’qituvchi xodimlar tomonidan tutilgan jurnallar yuritilishini, o’quv dastur va rejalarini yo’nalishlarga qay darajada mos kelishini nazoratga oladi va metodik tavsiyalar beradi.
- Professional ta’lim muassasalari raxbarlari va ularning o’rinbosarlari ish rejalarini ko’rib chiqib, uning bajarilishi ijrosini nazoratga oladi.
- Professional ta’lim muassasalarida yakuni Davlat attestatsiyalari o’tishi, o’quvchilarni o’z yo’nalishlari bo’yicha kichik kasb egalari bo’lib etishishlari hamda ularga Diplom berilishligi uchun yakuniy xulosalarni o`rganadi, tegishlicha xulosalar beradi.
- Boshqarmaning yillik ish rejasi asosida Hay’at yig’ilishlariga joylarda olib borilgan ishlar bo’yicha ma’lumotlar tayyorlaydi va shu asosda qaror loyihasini tayyorlaydi. Mazkur rejalar bajarilishi bo’yicha oylik, choraklik, yarim yillik va yillik xisobotlarni tayyorlaydi.
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi va boshqaradi;
- Viloyat komissiyasiga belgilangan tartib asosida Davlat ta`lim standartlari asosida O`quv-tarbiyaviy jarayoni, Horijiy tillarni o’qitish bo’yicha Qavlat Oliy ta`lim muassasalari, Professional ta`lim muassasalari, Nodavlat Oliy ta`lim muassasalari va Nodavlat O’quv Markazlari faoliyatini olib borish bo’yicha Ishchi organ hujjatlarini rasmiylashtirishda faol ishtirok etadi;
- Viloyat hududiy boshqarmasi tizimida Ta`lim sifatini oshirish borasida Horijiy xamkorlik ishlarini olib, boradi. Horijiy loyihalar bo’yicha professional ta’lim muassasalarida olibborilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi.
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etadi.

## <u>7. Texnik ta’minot va ekspluatatsiya bo’yicha bosh mutaxassis</u>

- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining bajarilishini ta’minlaydi;
- Mehnat, ichki tartib qoidalar va ijro intizomiga qat’iy rioya qiladi.
- Boshqarma tasarrufidagi ta’lim muassasalarida yangi qurilishi rejalashtirilgan binolar, rekonstruktsiya, mukammal va joriy ta’mirlash, elektr va moddiy ta’minotini, kommunal ho’jalik ishlarini nazorat qiladi.
- Xalq ho’jalik rejalarining bajarilishi, ta’lim muassasalarini yangi o’quv yiliga, kuzgi-qishki mavsumga tayyorlash bilan shug’ullanadi, ularni ko’mir va suyuq yoqilg’i bilan ta’minlaydi.
- Boshqarma bosh hisobchisi bilan birgalikda, ishlab chiqarish faoliyatini, shartnoma masalalarini hal etadi. Hisobotlarning o’z vaqtida topshirilishini ta’minlaydi;
- Statistika hisobotlarini o’z vaqtida topshirilishini ta’minlaydi.
- Yangi qurilishi mumkin va rekonstruktsiya hisobiga ta’mirlanadigan ta’lim muassasalari uchun mebel va jixozlar bilan ta’minlanishini yo’lga qo’yish, sifatini nazorat qilish hamda ularga bo’lgan talabni o’rganib chiqib, saqlanish va saqlash tartiblariga rioya qilinishini nazoratga oladi;

- Professional ta’lim muassasalari uchun yo’nalishlar kesimida hamda ularning moddiy texnika bazasidan kelib chiqib, belgilangan me’yor bo’yicha jihozlarga bo’lgan ehtiyojlarini o’rganib chiqish, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar tayyorlaydi.
- Yangidan olinayotgan barcha o’quv mebel va jixozlarining hujjatlari to’la to’kis bo’lishini hamda shu hujjat asosida ta’minlanishi bo’yicha nazorat olib boradi. Joylarda moddiy texnik jihozlarga e’tiborni kuchaytirish chora tadbirlarini belgilaydi.
- Rekonstruktsiya hisobiga tashkil etilayotgan professional ta’lim muassasalaridan chiqadigan o’quv mebellari va jixozlarining hisobini oladi hamda ulardan maqsadli foydalanish choralarini ishlab chiqadi.
- Professional ta’lim muassasalari o’quv mebel jihozlari hamda yo’nalishlar bo’yicha texnika, turli dastgoh jihozlariga bo’lgan ehtiyojni aniqlab, olib kelinishini ta’minlab, belgilangan tartibda o’rnatadi va undan samarali foydalanishni yo’lga qo’yadi. Ularni hisobotini olib boradi, kerakli yuk xatlarni rasmiylashtiradi hamda talab etilgan paytda yuqori tashkilotlarga yozma ravishda ma’lumot berib boradi;
- O’quv amaliyotlari uchun hom ashyo matariallarining xarid qilinishini ta’minlaydi.
- Qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida oziq-ovqat zaxirasining yaratilishi bo’yicha monitoring yuritadi.
- Tegishliligi bo’yicha boshqarmaga yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan og’zaki va yozma murojaatlarni ro’yxatga oladi va belgilangan tartibda hujjatlarni rasmiylashtiradi.
- O’z ish faoliyati bo’yicha joriy va istiqbol rejalar tuzadi. Rejalarda belgilangan ishlarning bajarilishini ta’minlaydi. Ushbu rejalarning bajarilishi bo’yicha oylik, choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlar tuzadi va yuqoridagi  instantsiyalarga hisobot topshiradi;
- Professional ta’lim muassasalaridagi mavjud bo’lgan va muddatini o’tab yaroqsiz holga kelgan moddiy-tovar boyliklari hamda texnika jihozlarini belgilangan tartibda hisobdan chiqarish uchun xulosa beradi va ularni hisobini olib boradi va kerakli ko’rsatma beradi. Ularni talon-taroj bo’lmaslik chora-tadbirlarini ko’radi, nazoratni kuchaytiradi.
- Xorijiy davlatlar krediti loyihasi bo’yicha olib kelingan jihozlarni o’z vaqtida joylarga etkazish va ulardan foydalanish, saqlanishi hamda samarali foydalanishini doimiy nazorat olib boradi;
- Boshqarma tasarrufidagi professional ta’lim muassasalariga olib kelingan jihozlar bo’yicha Boshqarma-hisobxonasiga o’z vaqtida hisobot berib boradi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etadi.
- Professonal ta’lim muassasalari uchun tabiy gaz, yoqilg’i, elektr-energiyaga bo’lgan talabni o’rganib chiqib, talabnoma hujjatlarini rasmiylashtiradi.
- Ajratilgan limit fondi asosida professional ta’lim muassasalari o’rtasida taqsimlab kerakli tashkilotlar bilan shartnoma rasmiylashtirishda amaliy yordam beradi va nazorat qiladi, gaz, elektro-energiya va boshqa kommunal ko’rsatkichlarning haqiqiy sarfi bo’yicha hisobot olib boradi.
- Ushbu xolat bo’yicha ta’lim muassasalaridan (II-SN stat boshqarmasi uchun va 1-KXX boshqarma uchun) choraklik hisobot qabul qiladi va belgilangan muddat bo’yicha kerakli tashkilotlarga umumlashtirilgan hisobot sifatida ma’lumot beradi;
- Professonal ta’lim muassasalarida obodonlashtirish ishlari, umumhalq hashari, ko’chat ekish (yashil makon dasturi) mavsumi olib borilgan ishlarni nazorat qiladi.
- Professonal ta’lim muassasalarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini o’rganadi, elektr energiyasi, gaz, ko’mir va yoqilg’i mahsulotlari bilan ta’minlash masalalarini echishda amaliy yordam beradi, moddiy-texnik ta’minlash me’yornomalarini takomillashtiradi, jixozlarni joylarga etkazilishini, o’rnatilishini, saqlanishini, texnik xolatini nazorat qiladi. Barcha ta`lim muassasalariga Quyosh panellari o`rnatilishini nazoratga oladi.
- Barcha professonal ta’lim muassasalari bo’yicha texnika xavfsizligi va mehnatni muxofaza qilish talabi va me’yoriy qoidalari asosida yillik chora tadbir ishlab chiqadi va joylarda bajarilishini nazorat qiladi.
- Professonal ta’lim muassasalarining bino va inshoatlarida yong’inga qarshi kurash talabi va qoidalariga qat’iy amal qilinishini hamda yong’in chiqishining oldini olish chora tadbirlari bo’yicha nazorat ishlari olib boradi va amaliy yordam beradi, gaz, elektr energiya, suv va boshqa kommunal harajatlarini o’lchash asboblarining to’g’ri ishlashini nazorat qiladi, ularga bo’lgan talabni o’rganib chiqadi, ta’mirlash va almashtirish choralarini ko’radi;
- Boshqarma xodimlari o’rtasida texnika va yong’in xavfsizligi bo’yicha tushuntirish beradi, ularning texnika va yong’in xavfsizligiga rioya etishlarini ta’minlaydi;

- Professonal ta’lim muassasalarining moliyaviy–ho’jalik faoliyatini nazorat qilish va malakali ishchilarga zarur bo’limlarning ehtiyojini qondirish bo’yicha ishlarni olib boradi;
- Professonal ta’lim muassasalari tasarrufidagi binolar, yordamchi binolar va muxandislik inshootlarning xolatini o’rganib, ularning ta’mirlanishi bo’yicha yillik tadbir ishlab chiqib, bajarilishini nazoratga oladi.
- Joylarda bajarilayotgan ta’mirlash ishlarining loyiha smeta hujjati asosida olib borilishini, loyihadan ortiqcha harajatga yo’l qo’ymaslikni, bajarilgan ishlar sifatini nazorat qiladi va tugallangan ishlarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida qabul qiladi;
- Qurilish, rekonstruktsiya va mukammal ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlarda nuqson va kamchiliklarni aniqlab, ma’lumot tayyorlaydi, ularni bartaraf etish choralari bo’yicha takliflar kiritadi. Qurilish montaj ish turlari bo’yicha sifatli va mukammal ishchi loyihalari asosida bajarilishini nazorat qiladi va tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi.
- Yangi qurilgan hamda rekonstruktsiya hisobidan ishga tushirilgan ta’lim muassasalari uchun Jamg’arma tomonidan berilayotgan laboratoriya jihozlari, o’quv kompyuterlar, texnika uskunalari va boshqa vositalar bilan ta’minlanishi hisobini oladi va ularni to’liq texnologiya bo’yicha montaj qilinishini nazorat qiladi;
- Professonal ta’lim muassasalarini moddiy texnika bazasini boyitilishi, mahalliy hamda chet el krediti hisobidan keltirilayotgan o’quv laboratoriya jihozlari hamda mebellarning to’g’ri saqlanish talablari va qoidalariga amal qilinishini va ulardan samarali foydalanishi, o’rnatilishi bo’yicha nazorat ishlarini olib boradi;
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi. O’ziga biriktirilgan ta’lim muassasalariga kuratorlik vazifasini bajaradi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etadi.

## **8. Xorijiy tillarni ommalashtirish bo’yicha bosh mutaxassis**

- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning bajarilishini ta’minlaydi;
- Mehnat, ichki tartib qoidalar va ijro intizomiga qat’iy rioya qiladi.
- Boshqarmaning metodik ko’maklashish bo’yicha metodistlar xizmatiga umumiy raxbarlik qiladi.
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimi qarorlari, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining amaldagi qonunlar bo’yicha me’yoriy hujjatlari asosida ta’lim muassasalarida Qishloq va suv ho’jaligi sohalari bo’yicha ishlarini olib borishni, tarbiyaviy jarayonni boshqarishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.
- Nazariy va amaliy darslar, o’quv amaliyotlarining sifatli tashkil etilishi, hom ashyodan me’yornoma asosida foydalanish darajasini ta’minlash bo’yicha ta’lim muassasalariga uslubiy yordam ko’rsatadi, ilg’or pedagog va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining ish tajribasini ommalashtiradi.
- Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligidan va yukori tashkilotlardan kelgan hujjatlar ijrosini ta’minlaydi. Davlat ta’lim standartlarini joylarda to’liq bajarilishi ustidan nazorat o’rnatadi. Milliy g’oya va uning mohiyatini har bir o’quvchiga etib borishini nazorat qiladi;
- Boshqarma tasarrufidagi ta’lim muassasalarda faoliyat yurituvchi Xorijiy til bo`yicha pedagoglar orasida attestatsiyadan o’tish muddati kelgan pedagoglarning ro’yhatini shakllantiradi, ro’yhatni mahsus dastur asosida Davlat xizmatlari orqali Attesatsiyadan o`tishliklarini monitoringini o;ib boradi.
- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan bayramlarni, Davlat dasturlari hamda barcha ommaviy tadbirlarning o’tkazilishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;
- Professional ta’lim muassasalarida o’quvchilar o’rtasida Fan olimpiadalari, kasb-mahorati va boshqa tadbirlarni o’tkazilishiga bosh bo’ladi. Iqtidorli va iste’dodli o’quvchilar bilan ishlashni yo’lga qo’yadi.
- Professional ta’lim muassasalarida ishlayotgan, yangi pedagogik inavatsion texnologiyalar bo’yicha ish olib borayotgan tajribali, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan va yosh istedoli o’qituvchilar ish faoliyatlarini ommalashtirishga amaliy yordam beradi.
- Horijiy davlatlarda malaka oshirib kelgan o’qituvchilar bilan ular ish tajribalarini ommalashtirish, loyihalar bo’yicha koordinatorlik faoliyatlarini tashkil etib, multiplikatorlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

- Professional ta’lim muassasalarida o’quvchilar jurnali, o’qituvchi xodimlar tomonidan tutilgan jurnallar yuritilishini, o’quv dastur va rejalarini yo’nalishlarga qay darajada mos kelishini nazoratga oladi va metodik tavsiyalar beradi.
- Professional ta’lim muassasalari raxbarlari va ularning o’rinbosarlari ish rejalarini ko’rib chiqib, uning bajarilishi ijrosini nazoratga oladi.
- Professional ta’lim muassasalarida yakuni Davlat attestatsiyalari o’tishi, o’quvchilarni o’z yo’nalishlari bo’yicha kichik kasb egalari bo’lib etishishlari hamda ularga Diplom berilishligi uchun yakuniy xulosalarni beradi.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1875-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha o‘qituvchilarni o‘quv-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion va boshqa texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiya va qo‘llanmalar bilan ta’minlanishida yordam beradi, ulardan foydalanishni amalga oshiradi. Xorijiy tillarni o‘qitilishi bo‘yicha viloyatda tizim va aholi orasida ommaviyligini ta`minlaydi.
- Professional ta’lim muassasalari chet tili (ingliz, fransuz, nemis, rus va h.k.) fani o‘qituvchilarining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, faoliyatiga doir me’yoriy hujjatlarni ijrosini ta’minlaydi.
- Chet tili fan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-metodika kengash faoliyatini boshqaradi.
- Xitoy, yapon, koreys tillarini maktablarda o‘qitilishi bo‘yicha mazkur fan o‘qituvchilar bazasini yaratadi hamda malakasini oshiradi.
- Viloyat fan olimpiadasiga iqtidorli o‘quvchilarning ishtirok etishini ta’minlaydi va uning natijalarini tahlil qiladi.
- Xorijiy tillarni o‘qitilishi bo‘yicha metod birlashmalar va metodik kengashlar ishlariga amaliy va metodik yordam berishni ta’minlaydi.
- Chet tilidan o‘quvchilar bilim darajasi, oraliq, bosqichli nazorat ishlari va yakuniy attestatsiya natijalarini o‘rganib tahlil qiladi, aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlaydi hamda ta’lim muassasalariga yetkazadi.
- Xorijiy til fanlari bo‘yicha metodik ishlarini muvofiqlashtiradi, turli sinov natijalarini tahlil qiladi.
- Chet tilidan chiqarilayotgan yangi o‘quv-metodik qo‘llanma va darsliklar sinovi bo‘yicha materiallar tayyorlaydi. Yangi metodik adabiyotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘qituvchilarga yetkazadi.
- Chet tillarga oid ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga va sifatini oshirishga oid “Eng yaxshi dars ishlanmasi” ko‘rik-tanlovini tashkil qiladi.
- Fanlar kesimida amaliy-uslubiy yordamlar berib, dolzarb masalalar bo‘yicha davra suhbatlari, seminarlar o‘tkazadi.
- An’anaviy avgust kengashlari, ilmiy-amaliy yig‘ilishlarini tashkilashtiradi, o‘tkazilishini ta’minlaydi.
- Chet tillar fanlari bo‘yicha maktab va tuman (shahar) olimpiadalari, fan bellashuvlarini tashkillashtiradi va o‘tkazadi.
- Tuman (shahar)larda tashkil etilgan jami 11 ta kasb-hunar maktablari, Shirin energetika (9-sinf bazasida) kollejida fan o‘qituvchilarining malakasini oshirishga metodik va amaliy yordam beradi. Hududlardan 1 nafardan o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini viloyat miqyosida ommalashtiradi.
- Ingliz, fransuz, nemis tillari bo‘yicha mazkur fanlar o‘qituvchilari to‘g‘risida ma’lumotlar bankini yaratadi va Professional ta’dim muassasalarida fan o‘qituvchilarining malakasini oshirish istiqbol rejalarining bajarilishini ta’minlaydi.
- Xorijiy tillar fani bo‘yicha “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” ko‘rik tanloviga malakali o‘qituvchilarning ishtirokini ta’minlaydi.
- Viloyat, Respublika fan olimpiadasiga iqtidorli o‘quvchilarning ishtirok etishini ta’minlaydi va uning natijalarini tahlil qiladi.
- Boshqarmaning yillik ish rejasi asosida Hay’at yig’ilishlariga joylarda olib borilgan ishlar bo’yicha ma’lumotlar tayyorlaydi va shu asosda qaror loyihasini tayyorlaydi. Mazkur rejalar bajarilishi bo’yicha oylik, choraklik, yarim yillik va yillik xisobotlarni tayyorlaydi.
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi va boshqaradi;
- Viloyat komissiyasiga belgilangan tartib asosida Horijiy tillarni o’qitish bo’yicha Nodavlat O’quv Markazlari faoliyatini olib borish bo’yicha Ishchi organ hujjatlarini rasmiylashtiradi;
- Viloyat hududiy boshqarmasi tizimida Horijiy xamkorlik ishlarini olib, boradi. Horijiy loyihalar bo’yicha professional ta’lim muassasalarida olibborilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi.
- Professional ta’lim muassasalari xotin-qizlar qo’mitasi boshlang’ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Viloyat xotin-qizlar qo’mitasi bilan doimiy ravishda direktiv hujjatlar bilan ishlaydi.
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etadi.

## 9. Bosh hisobchining lavozim majburiyatlari

- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining bajarilishini ta’minlaydi;
- Mehnat, ichki tartib qoidalar va ijro intizomiga qat’iy rioya qiladi.
- Vazirlikdan va yukori tashkilotlardan kelgan hujjatlar ijrosini ta’minlaydi.
- Boshqarma moliya-buxgalteriya xizmati xisobxonasi va tasarrufidagi ta’lim muassasalari hisobxonalari faoliyati ustidan umumiy nazorat qiladi va boshqarmaning barcha moliyaviy hujjatlariga ikkinchi imzo qo’yish huquqiga ega bo’ladi;
- Boshkarmaning moliya-buxgalteriya xizmati hisobxonasi (“Bosh kitob”) “O’zASBO” elektron jurnalini yuritadi;
- Amaldagi Moliyaviy qonunchilik va yo’riqnomalariga amal qilish, ular bilan xodimlarni muntazam ravishda tanishtirib borish, lozim bo’lganda hisobxona xodimlari va joylardagi hisobchilar ishtirokida amaliy seminarlar o’tkazadi;
- Davriy hisobotlarni qabul qilish, jamlash va ularni moliya boshqarmasiga topshirish, Ishlab chiqarish hisoboti, f-2, f-3-2 PTO, balans hisobotlarni jamlaydi va topshiradi;
- Boshqarmaning moliyaviy faoliyatlarini yuritish, bank, xazina va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini qabul qiladi;
- Yuqori va quyi tashkilotlardan kelgan xatlarga o’z vaqtida javob beradi.
- Boshqarmaning gerbli muhrining saqlanishiga va 6-provodkani tuzishga (safar harajatlariga) javob beradi.
- Boshqarma moliyaviy ishlariga to’liq javob beradi, g’aznaxonaning naqd pul kirim-chiqimlarini doimiy nazorat qiladi;
- Bank bo’yicha to’lov topshiriqnomalarini tayyorlaydi va imzolab tasdiq uchun boshliqga kiritadi. Kommunal xizmati bo’yicha taqqoslash dalolatnomasini jamlaydi;
- Boshqarmaning yillik smeta harajtalarini ishlab chiqadi, moliya boshqarmasi va g’aznachilikdan o’tkazib, moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi. Oylik va choraklik hisobotlarni o’z vaqtida ijrosini ta’minlaydi.
- Boshqarma hamda professional ta’lim muassasalarining yillik harajat smetalarini ko’zdan kechirib, uni me’yor-talablari bo’yicha tuzilishi, guruhlar bo’yicha mablag’larni kiritilishi va mablag’lardan samarali foydalanish bo’yicha mas’ul hisoblanadi.
- Barcha baxgalteriya hujjatlarining belgilangan tartibda saqlanishini, uning arxivga topshirilishini ta’minlaydi. Har yili nazorat-taftishdan belgilangan muddatda o’tkazilishligini, boshqarmadagi mavjud moddiy-tovar boyliklarini har chorakda sanoqdan o’tkazib borishligini ta’minlaydi.
- Boshqarma tasarrufidagi professional ta’lim muassasalarida Direktorlik jamg’armasi faoliyatini olib borish yuzasidan seminarlar tashkil etib, undan samarali va oqilona foydalanish bo’yicha umumiy nazoratni yo’lga qo’yadi.
- Soliq, sug’urta va bandlik jamg’armalariga, ijtimoiy sug’urta bo’limlariga davriy hisobotlarni to’g’ri tayyorlanishini va taqdim etilishini nazoratga oladi. Ta’lim muassasalari hisobidagi barcha avtotransport vositalari, traktorlar va qishloq ho’jalik mashinalari, o’quv ustaxonalaridagi stanoklarning texnik holatini nazorat qiladi. 1-mex, 1-ob, 2-ob, 1-avtotr. hisobotlarini ko’rib chiqadi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi O‘quv ustaxonalari, texnik reglamentlar va metrologik nazorat xizmatiga hisobot beradi;
- Professonal ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan yonilg’i moylash mahsulotlari to’g’risida Forma 33-ShOS, 4-SN hisobotlarini nazorat qiladi;
- Ta’rif me’yoriy hujjatlarini tekshiradi, guruhlar soniga aniqlik kiritadi va tasdiqlashga taqdim etadi.
- Boshqarma tomonidan tasarrufidagi professional ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini yaxshilash, o’quv adabiyotlari, o’quv dasturlari hamda o’qituvchi, pedagog-xodimlarni salohiyatini oshirish maqsadida, jihoz va texnikalar, etishmovchi o’quv adabiyotlari va yangi avlod o’quv darsliklari hamda malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni malaka oshirishliklarini ta’minlash maqsadida tashkilot va korxonalar, nashriyotlar hamda oliy o’quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalarni imzolash hamda ularni to’liq moliya va g’aznachilik bo’limlaridan o’tishi va shartnoma-shartlarini o’z vaqtida ijrosini ta’minlanishini nazoratga oladi.
- Hisob-kitob, buxgalterining majburiyatlarini bajarilishi, ish haqi, nafaqa va nafaqaxo’rlar bo’yicha hisob-kitobni amalga oshirilishi, xodimlar ish haqidan ushlanmalar va ajratmalar bo’yicha to’lov topshiriqnomalarini to’g’riligini nazorat qiladi;
- Amalaga oshirgan ishlari haqida har chorakda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga hisobot topshiradi;

- Professonal ta’lim muassasalarida kuz-qish mavsumini bir maromda o’tishini ta’minlash maqsadida ko’mir va suyuq yoqilg’isi bilan ta’minlash choralarini ko’rish, shartnomalar imzolash, mablag’larni o’z vaqtida o’tkazilishini ta’minlash.
- Professonal ta’lim muassasalari uchun jamg’arma tomonidan olinadigan mablag’larni va olib kelingan moddiy-tovar boyliklarni olib, kelinishi, saqlanishi hamda undan samarali foydalanishi uchun to’liq javob beradi, hujjatlarni rasmiylashtirilishini ta’minlaydi.
- Professonal ta’lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag` toppish, g`olib deb topilgan tashabbusli byudjet mablag`larini to`g`ri va maqsadli sarflanishini nazoratga olish va ularni hisobotini yuritib botishni ta’minlaydi.
- Boshqarma va tasarrufidagi professonal ta’lim muassasalaridagi moddiy-tovar boyliklarini belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o’tkazib borish, muddati o’tgan jihoz va mebellarni ro’yxatdan chiqarishni ta’minlaydi.
- Boshqarma boshlig’i tomonidan berilgan ko’rsatmalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi; o’ziga biriktirilgan ta’lim muassasalariga kuratorlik vazifasini bajaradi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etadi.